

«BOBURNOMA» MATNIDA SAJ SAN'ATI: TIL VA PRAGMATIKA UYG'UNLIGI

Shergoziyev Sh. Sh.

Namangan muxandislik-texnologiya instituti

E-mail: shuhratshergoziyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Boburnoma" matnidagi saj san'ati lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Bobur o'z asarida arab, turkiy va forsiy so'zlarni mahorat bilan qo'llagan holda tinglovchiga ta'sir o'tkazish, tarixiy voqealarni haqqoniy yetkazish va o'z shaxsiy qarashlarini ifodalashga intilgan. Shuningdek, asardagi murojaatlar, kinoya va ta'kidlar muallifning pragmatik maqsadlarini ochib beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, saj san'ati "Boburnoma" matnida nafaqat estetik, balki kommunikativ jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Boburnoma, saj san'ati, lingvopragmatika, tarixiy matn, kommunikativ niyat, arab-forsiy ta'siri, pragmatik strategiyalar, estetik uslub, nutqiy texnikalar, adabiy tahlil.

"Boburnoma" nafaqat tarixiy va adabiy ahamiyatga ega bo'lgan asar, balki uning lingvopragmatik tahlili ham muhimdir. Asarda Bobur shaxsiy kechinmalari, siyosiy voqealar va madaniy tafsilotlarni realistik va samimiy uslubda bayon qiladi. Lingvopragmatik jihatdan qaralganda, "Boburnoma"da muallifning ijtimoiy maqomi, kommunikativ niyatlari va nutqiy strategiyalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Bobur o'z asarida arab, turkiy va forsiy so'zlarni mahorat bilan qo'llab, tinglovchiga ta'sir qilish, tarixiy voqealarni haqqoniy yetkazish va o'z shaxsiy qarashlarini ifodalashga intilgan. Shuningdek, asardagi murojaatlar, kinoya va ta'kidlar ham muallifning pragmatik maqsadlarini yoritib beradi. Asarda Mirzaxon haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Sulton Maxmud Mirzoning o'g'li asl ismi Sulton Uvays Mirzo, manbaalarda Xonmirzo, Mirzoxon nomlari bilan ham tilga olinadi. [1, 34] Bobur bilan bir nechta yurishlarda hamrohlik qilgan bo'lsada baz'i hollarda unga qarshi ham bo'lgan. Bobur 1506 yil Hirotda bo'lib turgan vaqtida Mirzoxon Qobulda qo'zg'olon ko'targan. Bobur qo'zg'olonni bostiradi Mirzoxonni esa kechiradi va Mirzoxon Boburning Kandaxorga yurishida ishtirok etadi. Mirzoxonni Ismoil Safaviyga elchi sifatida ham yuborgan.

Mirzoxon yaqinlari bilan Muborakshohni taklifiga ko'ra Zafar qal'asi ketayotganda Koshgar xukmdori Abobakr Mirzo navkarlari qo'lga tushib, asirlikda vafot etadi. Asarda mana shu vaziyat quyidagicha tar'riflangan «*Muborakshox Qal'ayi Zafarg'a tilaganda Abobakr Koshg'ariyning chopqunig'a yo'luqub, Shohbegim va Mexr Nigorxonim va jami' elning ahli va ayoli asirliqqa tushub, ul zolimi badkirdorning habsida dunyoyi foniyni vido' qildilar.*» [2, 39]. Parchada keltirilgan jumlada Mirzoxon uning buvisi Shohbegim, onasi Nigorxonim va oilasi shuningdek yaqinlari ekan ularni *ahli va ayoli* saj'idan foydalangan holda ta'riflab o'tadi. Boburning sa'j san'atini yaxshi o'zlashtirganini shu misolda ham keladi *Shohbegim va Mexr Nigorxonim va jami' elning ahli va ayoli asirliqqa tushub* ya'ni va bog'lovchisini sa'ji mutavoziy sifatida foydalanib *ahli va ayoli* saj'i mutarrafni bir biri bilan bo'g'laganini ko'rishimiz mumkin. Sharq, jumladan O'rta osiyoga oid ko'plab tarixiy asarlarda biron bir tarixiy shaxs haqida ma'lumot berilar ekan uning nasl nasabi, avlodi va albatta *ahli va ayoli* jumlasiga ham duch kelamiz. *Ahl* so'zi arbcha bo'lib quyidagi ma'nolarga ega [*xalq, aholi; loyiq*].

1 Ma'lum bir qarash (nuqtai nazar), din va sh. k.ga mansub kishilar, odamlar. 2 Istiqomat qiluvchi, yashovchi kishilar; aholi. Shahar ahli. Qishloq ahli. 3 Ish-faoliyat, kasb-hunarning ma'lum turiga mansub, shu sohada faoliyat ko'rsatuvchi kishilar, odamlar. Mehnat ahli. Savdogar ahli. Ilm ahli. 4 Qatnashchi, ishtirokchi. Konferentsiya ahli. Suhbat ahli. [3,130] Hozirgui kinda bu soz'ni ko'proq diniy va badiiy mazmundagi adabiyotlar va suhbatlarda uchartamiz. Matnni o'qish jarayonida guvohi bo'lishimiz mumkinki muallif ham ahl so'zini mo'p bora qo'llagan. Ya.Zulfiyev, bu so'zga ta'rif berar ekan ahl so'zi XV-XIX yaratilgan badiiy asarlarda ancha keng qo'llangan. Hozirgi kunda bu so'z kuproq she'riy uslubga xos bo'lib, ilmiy uslubda, sheva va jonli tilda juda kam ishlatiladi. O'zbek tilida, ayniqsa, uning hozirgi taraqqiyot bosqichida ahl so'zi leksik birlik sifatida deyarli mustaqil qo'llanilmaydi. [4, 42-43] *Ahl* so'zining ko'plik shakli esa *aholi*. Biron kishining ahli deganda uning oilasi va yaqinlari deb qabul qilsak ham bo'ladi. G'iyosiddin Muhammad Yusuf o'zining Temur va uning ahli maqolasida ... *Amir Temurning ahli ya'ni avval aytilgandek, zavjalari, farzandlari, kelinlari, nabiralari va evaralari haqida..*[5] kabi ma'nolarini keltirib o'tgan. Ayol so'zi ham arabcha bo'lib [a. – oila; xotin] *Bu ma'noda asosan ko'plik shaklida qo'llanib, umumlashtirish ma'nosiga ega bo'ladi, "xotin-qizlar" ma'nosini bildiradi.* 3 *Xotin, rafiq (erga nisbatan).*[6, 43] kabi ma'nolariga ega. Bobur yashagan davrda shohlar, bekler va amaldorlar orasida bir va undan ortiq ayol bilan turmush qurish urf bo'lgan va har bir ayoli bilan farzandlari bo'lganligi uchun ularni umumiy ta'riflashda *ahli* va *ayoli* so'zlari ishlatilgan. Demak so'zlar ma'nolaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki matndagi *ahli* va *ayoli* bu Mirzoxonga hamroh bo'lganlarning oila a'zolari va ayollaridir.

Leyden-Erskin tarjimasida ko'rib chiqamiz: *Mobarek-shah having invited Khan Mirza to the fortress of Zafer, they were met on the road, tacked and plundered by one of Abu-beker Kashghari's marauding parties, and Shah begum and Meher-Nigar Khanum, with their whole family and attendants, were taken prisoners; and, in the prisons of that wicked miscreant, they departed from this perishable world* (7.18) *Muborak shoh taklifiga binion Mirzoxon Zafar qal'asiga ketayotganda Abu Bakr Qashg'arning talonchi guruhi tomonida qo'lga olinib talon taroj qilindi, Shohbegim va Mehrinigorhonim va butun oila a'zolari va xizmatkorlari hibsga olindi, o'sha yovuz buzuqning qamoxqonasida bu o'tkinchi dunyoni tark etishdi* (MT) Asliyatda kelgan *ahli* va *ayoli* saj'i tarjimasiga e'tibor qaratsak Leyden-Erskin tarjimasida *with their whole family and attendants* shaklida kelgan shu bilan birga Bobur foydalangan va bog'ovchilarni tarjimada ham asliyatdagi kabi o'z ornida ko'rishimiz mumkin.

Balki tarjimon matndagi *ahli* so'zini *family* va *ayoli* so'zini *attendant* (xizmatkor, joriya) deb qabul qilgan bo'lishi ham mumkin. Albatta tarjima jihatdan aynan saj'ga oxhash shaklni tarjima qilnayotgan tilda berish ancha murakkab biroq ma'no jihatdan ham biroz yaqinlik bo'lishi lozim. Shuning uchun o'quvchda Mirzoxonning butun oila a'zolari va xizmatkorlari yoki hamrohlari Abu Bakr Qashg'arning talonchi guruhiga qo'lga tushgan degan fikrga kelishiga e'tibor qaratgandir.

Keltirilgan parcha A.Beverij tarjimasida: *When Mubarak Shah invited Khan Mirza into Fort Victory, they were captured, together with the wives and families of all their people, by marauders of Aba-bikr Koshghari and, as captives to that ill-doing miscreant, bade farewell to this transitory world* [8,21] *Muborakshoh Xon Mirzoni Zafar qal'asiga taklif qilganda, ular Abu-bakr Koshg'ariyning talon-tarojchilari tomonidan asirga olinib butun xalqining xotinlari va oila a'zolari bilan, o'sha yaramas buzuqning asiri sifatida bu o'tkinchi dunyo bilan xayrlashdilar.*(MT) Beverij matndagi *ahli* va *ayoli* saj'ini *wives and families* tarzida tarjima qilish orqali *ahli* va *ayoli* qanday ma'no anglatishini va bu so'zlar ko'plik ma'nosida kelishini ham

yasxhi anglagan holda tarjima qilgan va biroz asliyatdagi saj' shakliga o'xshashlik jihatlarini namoyon etishga harkat qilganini ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni *wive* va *family* soz'larining *wives* va *families* shaklidagi «-s» ko'plik yasovchi qo'shimchasidan qofiya sifatida ham foydalangan. Bu jihatdan boshqa tarjimonlarga nisbatan Beverij asliyatga yaqinroq yondoshgan. Qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlash lozimki tarjimada Shohbegim va Mehrinigor xonim nomlari keltirilmagan. Bizningcha bu nomlar tarjimada ham aks etmog'i lozim edi. Sababi Mehrinigor xonim Mirzoxonning onasi va umri mobaynida hamrohlik qilgan hatto Bobur holasi sifatida o'zi bilan qolishni so'raganda ham rozi bo'lmaydi. Shohbegim esa uning buvisi va Badaxshon o'lkasining shoxi Sulton Muxammadning qizi bo'lib Badaxshonga taklif qilinishda Shohbegimni mavqei muhim bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek Bobur bu ismlarni ifodalashda va bog'lovchisidan saj' sifatida foydalanib jumla so'ngida *ahli* va *ayoli* saj'larini ham bog'lagan, tarjimada esa bu jihatlar saqlanmagan. Tekston tarjimasida: *Khan Mirza, Shah Begim, and Mihr Nigar Khanim went to Badakhshan. When Mubarakshah invited Khan Mirza to the Zafar fortress, he encountered Ababakr Kashghari's raiders, and Shah Begim and Mihr Nigar Khanim, along with all the folk of their people, fell into captivity, where upon they bade farewell to this mortal world in that evil tyrant's prison.* [9,37] Xon Mirzo, Shoh Begim va Mihr Nigorxonim Badaxshonga ketishdi. Muborakshoh Xon Mirzoni Zafar qo'rg'oniga taklif qilgach, Ababakr Koshg'ariyning bosqinchilariga duch keldi va Shoh Begim va Mihr Nigorxonim butun xalqi bilan asirga tushib, o'sha yovuz zolimning qamoqxonasida bu foniyl dunyo bilan xayrlashishdi.(MT).

Tekston tarjimasida *ahli* va *ayoli* saj'leri avvalgi ikki tarjimon misolidan anchain farq qiladi. Leyden-Erskin *ahli* va *ayoli* saj'larini *whole family and attendants*, Beverij *with the wives and families* tarzida bergan bo'lsa Tekston esa *all the folk of their people* tarzida berib faqatgina *ahli* so'zini ifodalash uchun tarjima qilgan xolos. Balki *ahli* va *ayoli* so'zining umumiy qarindosh, yaqinlar ma'nosini nazarda tutgan holda *all the folk of their people* shaklida tarjima qilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bir jihatdan o'quvchi tasavvurida butun oila va qarindoshlari asirga tushdi degan tushuncha paydo bo'ladi.

Lingvopragmatik tahlil nuqtai nazaridan, saj tarjimalari "Boburnoma" matnida muallifning nutqiy strategiyalarini, uslubini va kommunikativ niyatini ochib beradi. Bobur saj yordamida muayyan voqealarga urg'u berish, o'z his-tuyg'ularini ifodalash, ba'zan esa kinoya yoki ta'kid orqali o'zining ichki kechinmalarini o'quvchiga yetkazish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu esa matnning nafaqat tarixiy, balki badiiy jihatdan ham qimmatini oshiradi.

Umuman olganda, "Boburnoma"da saj san'ati til va pragmatika uyg'unligini ta'minlab, matnning mazmuniy va estetik ko'lamini boyitgan, shuningdek, Boburning shaxsiy uslubini shakllantirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi. – Toshkent: «Sharq», 2014. – B.341.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma» -Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi «Davlat ilmiy nashriyoti». -Toshkent., 2006. - B. 130.
4. Zulfiyev Ya, Jumanova M. O‘zbek tilida "ahl" so‘zining semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari // FDU ilmiy xabarlar. Ilmiy jurnal. 2005, №1. B.42-43.
5. <https://e-tarix.uz/maqolalar/1063-maqola.html>
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi «Davlat ilmiy nashriyoti». -Toshkent., 2006. - B. 43.
7. Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan. – Edinburg, 1826.
8. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru’ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975.
9. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996